

**XALQNING JANGOVOR VA MEXNAT AN'ANALARIDA KURSANTLARNING
VATANPARVARLIK VA VATANGA SODIQLIQ TARBIYASI.**

To'xtanazarov Ilhom Ibragimjonovich
FarDU harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Armiya va flotlarda jangchilarni jangta chorlovchi, harbiy xizmatni o'tashda paydo bo'luvchi va avloddan avlodga o'zatiluvchi jangovar an'analar asosida Vatanga bo'lgan muhabbat, uni himoya qilishga doimiy tayyorgarlik. Harbiy Qasamyodga, jangovar bayroqqa, jangovar do'stlikka sodiqlik, komandirni hurmat qilish, uni jangda himoya qilish, jangda ziyraklik va dushmanlarga beshafqat bo'lish g'oyalari haqida ma'lumotlar berilgan*

Ka'lit so'zlar: *mudofaa, O'zbekiston, milliy, istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, do'stlar, harbiy, metodlar, barqaror, qurollangan, sarhadlar, mustaqil, himoya, armiya, huquqiy, qudrati, vatanparvar, tarbiya, ajralmas, mudofaa-ommaviy, sport ishlari, yoshlar, yuksak, ma'naviy-siyosiy, jangovar.*

**EDUCATION OF PATRIOTISM AND LOYALTY TO THE FATHERLAND IN THE
PEOPLE'S WARRIOR AND LABOR TRADITIONS.**

Tokhtanazarov Ilhom Ibragimjonovich
teacher Faculty of Military Education of FarDU

Abstract: *In this article, the love for the Motherland, constant preparation for its defense, based on the military traditions that invite soldiers to battle in the army and fleet, appear during military service and are passed down from generation to generation. Information is given on the ideas of the Military Oath, loyalty to the battle flag, friendship in battle, respect for the commander, protection of him in battle, intelligence in battle and kindness to enemies.*

Keywords: *defense, Uzbekistan, national, independence, economy, politics, ideology, friends, military, methods, stable, armed, borders, independent, defense, army, legal, power, patriot, education, integral, defense-public, sports affairs, youth, high, spiritual-political, martial.*

**ВОСПИТАНИЕ ПАТРИОТИЗМА И ВЕРНОСТИ ОТЕЧЕСТВУ В НАРОДНО-
ВОИНСКИХ И ТРУДОВЫХ ТРАДИЦИЯХ.**

Тохтаназаров Ильхом Ибрагимжонович
учитель Факультет военного образования ФарДУ

Аннотация: *В данной статье любовь к Родине, постоянная подготовка к ее обороне, основанные на воинских традициях, призывающих воинов к бою в армии и на флоте, проявляются во время воинской службы и передаются из поколения в*

поколение. Дается информация об идеях Военной присяги, верности боевому знамени, дружбе в бою, уважении к полководцу, защите его в бою, уме в бою и доброте к врагам.

Ключевые слова: оборона, Узбекистан, национальная, независимость, экономика, политика, идеология, друзья, военные, методы, устойчивый, вооруженный, границы, независимый, оборона, армия, правовая, власть, патриот, воспитание, интегральная, оборонно-общественная, спортивное дело юношеский, высокий, духовно-политический, боевой.

Vatanga sadoqat – tarixiy anʼana boʻlib, har bir ijtimoiy etnik formalarda jamiyat ongida yashagan. Tarixiy nomlar boʻlishida Tumaris (Kir II), Shiroq, Spitamen, Muqanna, Amir Temurlarni keltirish mumkin.

Toshkent, Fargʻona, Jizzax qoʻzgʻolonlari Oʻzbekistonliklarning ikkinchi Jaxon urushi frontlarida fashistlarga qarshi janglarda qahramonliklar koʻrsatishi, dalalar, zavod - fabrikadagi qahramonliklari. Insonlarning oʻzi nochor boʻlsalarda evakuatsiya qilinganlarni oʻz oilasiga qabul qilishi; oʻzlari och boʻlsada oxirgi tishlam nonlarini doʻstona boʻlib yeyishlari-Oʻzbekisgon yana bir bor xalqparvar ekanligidan dalolat beradi.

Frontda va front orqasida jasorat hamda mardliklari uchun minglab vatandoshlarimiz orden, medallar bilan taqdirlanadilar. Mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlab davlatimizning shu kabi anʼanalari yangi mazmunga ega boʻlgan holda qayta tiklandi. Davlatimiz oʻz Bayrogʻi, Gerbi va Madxiyasiga ega boʻldi. Mustakillikka erishish bilan xalqimiz avval ega boʻlgan anʼanalarini milpiy qadriyat sifatida tiklay borishi ham mukaddas ishdur.

«Erga, Vatanga muhabbat - muqaddas tuygʻulardir - ular xalqimiz milliy harakterining muhim xususiyatidir» deb Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlis I sessiyasida xalqimizning yuksak tuygʻulari haqida aloxida soʻzlab oʻtdi.

Jangovar bayroqqa va harbiy qasamyodga sodiqlik.

Qadimdan jangovar bayroq jangchilarini jangta chorlovchi ramz sifatida qoʻyilgan. Qadimda bayroq oʻzun yogʻoch uchiga oʻt bogʻlamidan iborat boʻlgan yoki otning yoli uchiga bogʻlangan. Keyinroq esa uni matoning bir boʻlagiga almashtirilgan.

Qadimdan bayroq jangovar ramzga aylangan. Jangovar Bayroq ostida jangovar qasamyod qabul qilingan. Jangovar Bayroqqa sodiqlik ulugʻ anʼanadir. U qadim manbaalarga ega. Bayroq- muqaddasdir.

Urush yillarida uni koʻz qorachigidek, eng ulugʻ, qimmatbaho mulkdek avaylab - asrashgan. Qurolli Kuchlarning jangovar Bayrogʻi Oʻzbekiston Respublikasi harbiy qismlari xolatini koʻrsatadi.

Harbiy qismning jangovar bayrogʻi shon - shuxratining ramzidir..

Harbny Qasamyodnng yangi taxirida shunday deyiladi:

Men, Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirar ekanman, xalqimga, Prezidentimga sodiq boʻlishga tantanali ravishda qasamyod qilaman. Men Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini va qonunlarini muqaddas bilib, ularga rioya etishga, harbiy nizomlarni, komandirlar va boshliqlarning buyruqlarini soʻzsiz bajarishga, harbiy nizomga qatʼiy rioya qilishga, halol, jasur va sergak jangchi boʻlishga qasamyod qilaman.

Soʻnggi nafasim qolguncha ona-Vatanimning sadoqatli farzandi boʻlib qolishga, harbiy

xizmatning butun mashaqqat va qiyinchiliklarini sabot bilan yengishga, davlat va harbiy sirlarni mustaxkam saqlashga ajdodlarim ruhi oldida qasamyod qilaman.

Jonajon O'zbekistonning nurli istiqboli uchun uning davlat manfaatlari va mustaqilligining himoyachisi bo'lishga qasamyod qilaman.

Agar men ushbu tantanali qasamyodimni bo'zsam, qonunlarda belgilangan jazoga va xalqning nafratiga muhtalo bo'lay.

Harbiy qasamyod davlat miqyosida katta ahamiyatga ega bo'lgan hujjatdir. U O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan (hozirgi davrda Oliy Majlis) 1992 yil 3 iyulda tasdiqlangan va qonun kuchiga ega, Unda Qurolli Kuchlar jangchilariga Prezident, xukumat va xalq talablari bayon etilgan. Unda Qurolli Kuchlarda xizmat qilishning asosiy majburiyatlari belgilab berilgan. Shuningdek. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi jangchining Vatan himoyasi uchun egallashi shart bo'lgan asosiy sifatleri belgilab qo'yilgan

Qasamyodni qabul qilish yuqori darajada vatanparvarlik hujjatidir. Qasamyodni jangchi o'z imzosi bilan mustaxkamlaydi. Jangchi hayoti va xizmatida Qasamyod bo'zilmay qonun bo'lib hisoblanadi. Askar uchun Qasamyod muqaddasdir. Qasamyodni yod olgan jangchi yosh jangchi kursini o'taganidan so'ng qabul qiladi. Ushbu qasamyodni qabul qilish kuni - dam olish kuni bo'lib, harbiy qism uchun bu katta bir tantana ya'ni bayramdir.

Ulug' ajdodlarimiz bizning ota - bobolarimiz tajribasidan ma'lumki, berilgan so'zga sodiqlik haqiqiy erkaklar Vatanparvarlar uchun o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan biridir.

Jangovar an'analarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati.

O'zbekiyyun Qurolli Kuchlari xalqning ajralmas qismidir. Ko'p asrlik tariximiz davomida yuzaga kelgan, eng yaxshi jangovar va mehnat an'analarimiz o'zining boy ma'naviy kuchini yo'qotgani yo'q. Uning ma'naviy imkoniyatlari juda ham yuqoridir, hamda hozirgacha qadrlanib kelinmoqda. U chuqur manbalarga ega.

Bo'yin egmas So'g'diyona va Baqtriya, Maroqanda va Xorazmshox, xalq ozodligi uchun cho'ldagi Shiroqning jasorati (eramizdan avvalgi I asr, Doro I) va Spitamen ko'zg'oloni (324 - 327 eramizdan avvalgi yillar) yo'l boshchilari A.Makedonskiy, Abruy (VI asr 80 - yillari Turkistonga qarshi), Muqanna (VIII asr 70 yil arablarga qarshi) lar unugilmas jasorat ko'rsatganlar.

Ulug' sarkardalar Amir Temur (1336 - 1405) va uning avlodlari. Bobur (buyuk mo'g'illar sulolasining asoschisi XV - XVI asr) - bularning hammasi tarixdan bizgacha yetib kelgan hamda ma'naviy meros bo'lib qolgan milliy qadriyatlarimiz, ya'ni ma'naviy - ma'rifiy boyligimizdir. Ulug' ajdodlarimiz Beruniy (olim 973 -1050y), Al - Xorazmiy (matematik, geograf, tarixchi 780 - 847 y), Ibn - Sino (Aviasenna, meditsina, asronomiya, geologiya 980 - 1037 y), imom Buxoriy, Axmad Yassaviy, Ulugbek (asrologiya maktabi, davlat arbobi 1394 - 1449 y) kabi olimlarimizning xotirasi bir umr mangu bo'lib, insonlar qalbidan ijobiy o'rinlarni egallab qolgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muratovich, L. C. M. A. (2022). OBJECTIVE PRINCIPLES OF MILITARY PATRIOTIC EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(7), 40-41.

2. Муратович, П. М. А. (2022). Средняя Азия в конце XVIII–первой половине XIX в. *Gospodarka i Innowacje*, 20, 62-63.
3. Mamadzhanov, A. M. (2021). Patriotism-The Basis of The Formation of Society. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 130-132.
4. Мамаджанов, А. М. (2021). Патриотическое Воспитание Как Фактор Совершенствования Человека Как Личности. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 62-65.
5. Khaydarov, B. Y. (2021). The meaning and methods of determining the composition of the human body. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1085-1089.
6. Voxodirjon, X. (2022). ODAM TANA TUZILISHINI TAXLIL QILISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(20), 108-114.
7. Axatov, S. A., & Akhmatkulov, U. M. (2021). Basics of pre-conscription military training subject. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 441-447.
8. Saidov, I. M., Axmatqulov, U. M., & Abdullayev, B. T. (2020). OMMAVIY VA INTERNET AXBOROT RESURSLARINING YOSHLARDA VATANGA SODIQLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHDAGI BOG'LIQLIKLAR. *Academic research in educational sciences*, (4), 199-203.
9. Собиров, О. Ф., & Ахмадқулов, У. М. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ. *Мировая наука*, (11), 306-308